



IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS BY MEANS OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Kanoatova Nazokatkhon Sotvoldinovna
Teacher of Andijan State University

Annotation:

This article deals with the understanding of information technologies, improvement of the mechanism of independent education of students by means of information technologies.

Keywords: technology, education, information, telecommunications, cybernetics, modern, personnel

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng uning oldida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun, madaniy va ma'naviy yangilanish uchun keng yo'llar ochildi. Shu bois Respublikamizning barcha sohalarini texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikatsiyali va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Ayni vaqtda yangi texnologiyalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) taraqqiyoti bilan birgalikda rivoji masofa va vaqt oraliq'iga qaramay axborot, pul va boshqa resurslarni tez yetkazib berish, almashish uchun imkoniyat yaratmoqda.

Axborotlashgan iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq sodir bo'layotgan chuqur va tub o'zgarishlar bir qator muammo va ziddiyatlarga olib kelmoqda. Bunday muammolarga jamiyat faoliyatidagi turli sohalarga oid globallashtirish va axborotlashtirish tufayli paydo bo'lgan hamda har tomonlama o'rganish va yechimi kompleks yondashuvni talab etuvchi iqtisodiy hayotning o'zgaruvchanligi va beqarorligini kiritish mumkin bo'ladi. Bulardan ta'lim, AKT, ilmiy va innovatsion faoliyat turlarining jamiyat, davlat va iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirining kuchayishi hamda ular faoliyat yuritishining sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'lishini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi jamiyat hayotidagi ziddiyatlarga qanday ta'rif berishi hamda uning nazariy jihatdan mazmun-mohiyati jahon iqtisodiyotining hozirgi zamon bosqichida o'z aksini qanday topayotganligi va axborotlashgan iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib bermoq hozirgi kunda o'ta muhim masalalardan biridir.





Axborot tizimi — belgilangan maqsadga erishish yo'lida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun qo'llaniladigan usullar, vositalar va shaxslarning o'zaro bog'langan majmuasidir.

Axborot tizimlari jamiyat paydo bo'lgan paytdan boshlab mavjud bo'lgan, chunki rivojlanishining turli bosqichida jamiyat uz boshqaruvi uchun tizimlashtirilgan, oldindan tayyorlangan axborotni talab etgan. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlari — moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayonlarga tegishlidir. Chunki ular jamiyat rivoji uchun xayotiy muhim ahamiyatga ega. Aynan ishlab chiqarish jarayonlari tezkor takomillashadi. Ularning rivojlanib borishi bilan boshqarish xam murakkablashadiki, o'z navbatida, u axborot tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Shu sababli, avvalo, boshqaruv tizimi nima ekanligini bilib olaylik.

Kibernetik yondashuvga muvofiq boshqaruv tizimi boshqaruv ob'ekti (masalan, korxonalar, tashkilotlar va xokazo) va boshqaruv sub'ekti, boshqaruv apparati yig'indisini o'zida namoyon etadi. Boshqaruv apparati deganda maqsadlarni shakllantiruvchi, rejalarni ishlab chiquvchi, qabul qilingan ilingan qarorlarga talablarni moslashtiruvchi, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qiluvchi xodimlar tushuniladi. Boshqaruv ob'ekti vazifasiga esa boshqaruv apparati ishlab chiqqan rejalarni bajarish kiradi, ya'ni boshqaruv tizimining o'zi aynan mana shu ishlarni amalga oshirish uchun tuzilgandir.

Boshqaruv tizimining ikkala komponenti to'g'ri (T) va aks (A) aloqalar bilan bog'langan. Tg'g'ri aloqa boshqaruv apparatidan boshqaruv ob'ektiga yo'naltiriladigan axborot oqimida ifodalanadi. Aks aloqa teskari yo'nalishda yuboriluvchi qabul qilingan qarorlarning bajarilishi haqidagi xisobot axboroti oqimida o'z aksini topadi.

Bugungi kunda oliy ta'limda o'quv jarayonlari mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ma'lum kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash sharoitida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha har tomonlama tizimli ish olib borishni talab etadi. Oliy maktabda ta'lim ko'plab ma'lumotlar sig'imini egallashga, samarador, ijodiy tafakkurni shakllantirishga, shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlashga bo'ysundirilmog'i lozim.

Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirish hisoblanadi.





Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida 1998-1999 yildan boshlab mustaqil ta'limga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Chunki, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishga, uning ilmiy axborotlar sig'imini mustaqil kengaytirishga va mustahkamlashga o'rgangan talabagina etuk mutaxassis bo'lib etishadi. Mustaqil ta'lim o'quv faniga ajratilgan soatning bir qismi bo'lib, unga belgilangan materiallarni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirish ko'zda tutiladi. Uning hajmi o'quv faniga ajratilgan soatlarning bakalavriatda 15-20 foizini, magistraturada esa 40-45 foizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlarda mustaqil ta'lim o'quv jarayonining auditoriyadan tashqari shakli ekanligi va u kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan dastur bo'yicha nazariy va amaliy (uy vazifasi, referat, ijodiy topshiriq, kurs ishi yoki uning bir qismi va h.k.) topshiriq shaklida tashkil etilishi ko'rsatilgan. O'quv fanlarining 1999 yilda chop etilgan namunaviy dasturlarida mustaqil ta'lim «ishchi dasturga kirmay qolgan materiallarni o'zlashtirish» deb qayd etiladi. Mustaqil ta'limning qaysi shaklda o'tkazilishi o'quv fanining ishchi o'quv dasturida aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Chunki, mustaqil ta'lim talabalar bilimining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 24 dekabr yig'ilishida «Talabalarda mustaqil fikrlash, bilim olish xususiyatlarini shakllantirish muammolari haqida»gi masala ko'rib, «Professor - o'qituvchilar shaxsiy ish rejalaridagi uslubiy ish qismiga talabalarining mustaqil fikrlash va bilim olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmalar (vaziyatli masalalar to'plamlari, xususiy vazifalar va tarqatma ashyolar va b.)ni 1999-2000 o'quv yili davomida ishlab chiqish kiritilsin» deb hay'at qaror qabul qilgan.

Keyingi yillarda ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlarini tahlil qilish ko'rsatmoqdaki, ba'zi ta'lim yo'nalishlari o'quv dasturlarining yangilangan variantlarida «mustaqil ta'lim» «mustaqil ish»ga almashtirilib xatoga yo'l qo'yilgan. Zotan, mustaqil ish - bu mustaqil ta'lim olishning birgina shakli bo'lib, mustaqil ta'lim olish - auditoriyada olingan ilmiy bilimlar sig'imini qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, kurs ishlarini bajarish, ijodiy mavzudagi kompozitsiyalarni yechish kabi jarayonlarda amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llagan holda barcha soha va markazlarni raqamlashtirsak, shu yuqoridagi muassasalarning raqamlashtirish faoliyati jarayonida mehnat unumdorligi va samaradorligi oshadi, hamda imkoniyatlari kengayadi.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Ш., Амиров Д. Узбекистонда ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланиши шархи за
2. Qodirova, B. "Analysis of verb terms in Uzbek and Kazakh language schools' manuals." *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems* 12.6 (2020): 1125-1129.
3. Kadirova, Zulayxo. "INTERNATIONAL LABOR MIGRATION POROCESSES IN UZBEKISTAN." *Вісник Національної академії керівних кадрів культури і мистецтв* 3 (2018).
4. Kadyrova, B. "The Concept of Historical Consciousness and its Interaction with Social Intelligence." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8: 189-194.
5. Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнура Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." *Образование* 8.9 (2022): 10.
6. Turgunovna, Kodirova Buzuloikho. "Gaming technologies to improve the efficiency of the educational process." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.02 (2022): 837-839.
7. Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнура Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." *Образование* 8.9 (2022): 10.
8. Кодирова, Бузулайҳо Турғуновна. "ФОРМИРОВАНИЕ ВОСПРИЯТИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY*. 2020.
9. Kadirova, B. "PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS." *harmony* 3: 12.
10. Кодирова, Бузулайҳо Турғуновна. "Специфика работы над художественно-историческим произведением в начальной школе." *Вопросы науки и образования* 7 (19) (2018): 213-215.
11. Кодирова, Бузулайҳо Турғуновна. "Методологические основы формирования текстовой деятельности у учащихся в процессе постижения художественного произведения." *Научные исследования* 6 (26) (2018): 78-80.